Ularning g'oyalarida kichik biznes va tadbirkorlik bo'yicha xorij iqtisodchi olimlari tomonidan ilgari surilgan nazariya va maktablarning vujudga kelishi va taraqqiy topishi, kichik biznes va tadbirkorlik tushunchalari, ularning iqtisodiyotda tutgan o'rni, respublikada kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, kichik biznes va tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy asoslari va ularni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash masalalari keng yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada iqtisodiy tahlilning analiz va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslama kabi an'anaviy usullardan foydalanildi. Iqtisodchi olimlarning turizmga tadbirkorlikni rivojlantirishga doir ilmiy-amaliy qarashlari tahlil qilindi va natijalari asosida xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Ma'lumki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jahon mamlakatlari tajribasida o'zining yuksak natija va muvaffaqiyatlari bilan mustahkam o'rin olgan. Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 60-70 foizni tashkil etadi. Kichik biznesning rivojlanishi iqtisodiyotdagi jo'shqinlik va samarali raqobat muhiti uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, iste'mol sektorini kengaytirish orqali talabni rag'batlantirish, iste'mol bozorini tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, budget tushumlarini kengaytirish uchun imkon yaratadi. Shunga ko'ra, aksariyat rivojlangan mamlakatlar kichik biznes faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga harakat qiladilar. Bu borada, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Haqiqatan ham, biz faqat faol tadbirkorlik, tinimsiz mehnat va intilish orqali taraqqiyotga, farovon hayotga erisha olamiz" deb belgilab berishi o'ziga xos dasturulamal hisoblanadi.

Shu o'rinda savol tug'ilishi tabiiy: aynan O'zbekiston iqtisodiyoti uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati nimalarda namoyon bo'lmoqda?

Ushbu savolga bir maqola doirasida to'liq va tugal javob berib bo'lmaydi, biroq bu boradagi asosiy jihatlarni ko'rsatib o'tish hamda muayyan mulohazalar bildirish, xulosalar chiqarish mumkin bo'ladi.

Tadbirkorlik erkinligi, ijodkorligi hamda raqobat muhiti uyg'unlikda juda katta bunyodkorlik kuchini hosil qiladi. Ayniqsa, o'zining faoliyat ko'lamini jihatidan nisbatan ixcham bo'lgan kichik tadbirkorlik iqtisodiyotdagi kon'yunkturaviy o'zgarishlarga tezlik bilan moslasha olish, iste'molchining did va qiziqishlarini to'liq anglash va e'tiborga olish, ichki imkoniyatlardan to'liq foydalanish, raqobat muhitini kuchaytirgan holda iqtisodiyotga jo'shqinlik baxsh etish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Mamlakatimizda kichik tadbirkorlik subyektlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, iqtisodiy o'sish va barqarorlikni ta'minlashdagi rolini hisobga olgan holda davlatimiz tomonidan yaratilgan shart-sharoitlar hamda qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida yalpi ichki mahsulotda ahamiyatli ulushga ega bo'lib kelmoqda (1-rasm).




1-rasm: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, foiz

Ushbu ko'rsatkichning salmog'ini tasavvur etish uchun eslatib o'tish joizki, u 1991-yilda atigi 1,5 foizni, 2000-yilda 31 foizni tashkil etgan edi. Ayniqsa, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichi sifatida e'tirof etilgan 2016-yilda mazkur sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi o'zining eng yuqori marrasiga, ya'ni 64,9 foizga, 2018-yilda yesa 62,4 foizga, 2022-yilda 51,8% ga yetgan. Mamlakatimizda taraqqiyotning yangi bosqichida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni deyarli 2 baravar o'sib, 2016-yildagi 210,6 ming birlikdan 2020-yilda 424,3 ming, 2023-yilda 548,4 ming birlikka yetdi, umumiy korxona va tashkilotlar tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 2016-yildagi 78,5 foizdan 2020-yilda 86,5 foizga qadar o'sdi.

Shuningdek, keyingi yillarda mazkur ulushdagi bir oz pasayish holatlarini kuzatish mumkin. Bu o'rinda, kichik tadbirkorlik subyektlarining YalMdagi ulushining qisqarishi asosan mamlakatimizdagi yirik sanoat obyektlarining ishga tushirilishi tufayli yirik korxonalar ulushining nisbatan tezroq o'sishi bilan izohlanadi. Ya'ni, 2017-yildan boshlab mamlakatimizning yirik sanoat obyektlariga juda katta hajmda xorijiy investitsiya va kredit mablag'lari jalb etilishi natijasida ulardagi ishlab chiqarish hajmi keskin o'sa boshladi. Jumladan, buning ifodasini kichik biznesni sanoatdagi ulushining 2017-yildagi 41,2 foizdan 2022-yilda 26 foizga qadar qisqarishi orqali ham ko'rish mumkin. Shu bilan birga, e'tiborga olish kerakki, so'nggi ikki yil mobaynida jahonda ro'y berayotgan koronavirus pandemiyasining iqtisodiyotga salbiy ta'sirlari mazkur ko'rsatkichning ma'lum darajada pasayishiga olib keldi. Chunki, mamlakatimizda joriy etilgan karantin munosabati bilan ayrim ommaviy tadbirlar, aholi harakatining cheklanishi bilan bog'liq holatlar birinchi navbatda kichik biznes subyektlari faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Agar majoziy ma'noda iqtisodiyotdagi yirik korxona va birlashmalarni iqtisodiyot organizmining suyak (skelet) qismi deb hisoblansa, u holda kichik biznes ushbu qismga qayishqoqlik, moslashuvchanlik baxsh etuvchi, uning bir maromdagi harakatini ta'minlovchi mushak-to'qima qismini tashkil etadi. Kichik biznesning iqtisodiyotga qayishqoqlik, moslashuvchanlik baxsh etuvchi xususiyati yangi korxonalarning tashkil topishi jarayoni orqali ta'minlanadi. Ya'ni, kichik biznes korxonalari iqtisodiyotdagi talab jadallik bilan o'sib borayotgan tarmoq va sohalarga javoban yangi ishlab chiqarishni tashkil etadi (2-rasm).



2-rasm: Yangidan tashkil etilgan korxonalar to'g'risida ma'lumot, ming birlikda¹

¹ Ma'lumot muallif tomonidan stat.uz saytidan olingan



Ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2017–2022-yillar mobaynida mamlakatimizda jami 484 mingdan ortiq korxonalar tashkil etilgan. Shundan 14,8 mingtasi (jami korxonalarning 5,1 foizi) yirik korxonalar, 273,2 mingtasi (94,9 foizi) kichik biznes korxonalari hisoblanadi. E'tiborli jihati shundaki, nisbatan uzoq muddatli talabni e'tiborga olgan holda tashkil etiluvchi yirik korxonalar dinamikasida beqarorlik, aniqrog'i, oxirgi yillarda pasayish kuza-tilmoqda. Kichik biznes korxonalarida esa barqaror o'sish tendensiyasi saqlanib qolmoqda.

Taraqqiyotning yangi bosqichida mamlakatimizda kichik biznes faoliyat ko'lamining tobora kengayib borayotganligini har 1000 nafar aholiga to'g'ri keluvchi faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni orqali ham kuzatish mumkin. Ushbu ko'rsatkich 2017 yilda - 12,2 birlik, 2018-yilda - 13,2 birlik, 2019-yilda - 13,3 birlik, 2020 - 15,6 birlik, 2023 yilda - 15,2 birlikni tashkil etgan. Holbuki, bu davrda respublikamiz aholisining soni har yili 1,7 - 2 foiz atrofida oshib bormoqda. E'tiborlisi shundaki, kichik tadbirkorlik subyektlari sonining eng katta o'sishi iqtisodiyotga pandemiyani salbiy ta'siri sharoitida ro'y bermoqda.

Kichik biznesga xuddi iqtisodiyotga yangi kuch, yangi quvvat baxsh etuvchi soha sifatida qarash mumkin. Iqtisodiyotda yangidan tashkil etiluvchi korxonalar keyingi paytda vujudga kelgan talabni, so'nggi texnologik yangilik va yutuqlarni ma'lum darajada o'zida jamlaydi va amaliyotga joriy etadi. Ularning soni ko'payishi iqtisodiyotga katta xissa qo'shadi(1-jadval).

1-jadval: O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan korxonalar to'g'risida ma'lumot, ming birlik

Yil	Jami korxonalar		Yirik korxonalar		Kichik biznes korxonalari	
	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
2019	398,1	96,7	63,3	3,8	334,8	92,9
2020	475,2	95,3	64	2,1	411,2	93,2
2021	323,5	102,8	60,6	3,9	262,9	98,9
2022	398,1	93,6	63,3	3,4	334,8	90,2
2023	475,2	88,8	64	2,8	411,2	86

Eng muhimi, kichik tadbirkorlik subyektlari qandaydir ko'rsatma yoki undovlar ostida emas, balki iqtisodiyotdagi kon'yunkturani hisobga olgan holda erkin va mustaqil tashkil etiladi. Aynan shu holat iqtisodiyot tarmoqlarining umumiy ko'lamiga o'ziga xos tuzatishlar kiritadi. Jumladan, 2019–2023-yillar davomida yangidan tashkil etilgan kichik biznes korxonalari 2023-yil bo'yicha eng katta salmog'i savdo (jami korxonalarning 38,9 foizi), sanoat (16,4 foizi), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (10,9 foizi), yashash va ovqatlanish (6,9 foizi), qurilish (5,6 foizi) tarmoqlariga to'g'ri keladi. Bu esa mamlakatimiz yetakchi tarmoq va sohalari o'rtasidagi maqbul nisbatning shakllanishiga xizmat qiladi.


Kichik tadbirkorlik iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirish, uning moslashuvchanligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Iqtisodiyotdagi raqobat muhiti – bu turli mahsulot va xizmatlarning ishlab chiqaruvchilari va iste'molchilari o'rtasida qulay sharoitga erishish hamda erishishi ko'zda tutilayotgan foyda yoki iqtisodiy nafni maksimallashtirish maqsadidagi iqtisodiy bellashuv (kurash)dir. Iqtisodiyotda monopoliyalarning paydo bo'lishi va amal qilishi – bu obyektiv jarayon. Monopoliyalarni butunlay bartaraf etish imkoniyatdan tashqari holat hisoblanadi. Ayrim holatlarda davlatning monopoliyaga qarshi kurashi ham darhol o'zining yetarli samarasini bermasligi mumkin. Shu o'rinda yana kichik biznes subyektlari yordamga keladi. Yangidan yangi kichik ishlab chiqarish subyektlarini tashkil etish va ularning rivojlanishi uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratib berish orqali bozordagi monopoliya darajasini pasaytirish mumkin.

Shuningdek, mazkur soha iste'mol bozorida talab va taklif muvozanatini tiklash va ta'minlashda asosiy tomonlardan biridir. Hozirda mamlakatimizda biron bir mahsulotning, xoh u oziq-ovqat tovarlari bo'lsin, xoh kiyim-kechak yoki uy-ro'zg'or buyumlari bo'lsin, kuchli taqchilligining vujudga kelishidan xavfsirash holatlari mavjud emas. Chunki, o'z faoliyat xususiyatiga ko'ra iste'moldagi ahamiyatsiz o'zgarishga ham o'ta sezgirlik bilan e'tibor qaratuvchi kichik tadbirkorlar qisqa muddat ichida bozordagi har qanday taqchillikka o'z munosabatlarini bildiradilar: taqchilligi ortidan narxi ko'tarilgan mahsulotni dastlab boshqa hudud yoki chet mamlakatlardan olib kelish, o'rta yoki uzoq muddatli davrda esa uning milliy ishlab chiqarishini yo'lga qo'yish orqali bozordagi talab va taklif muvozanatini tiklashga harakat qiladilar.



Kichik biznesning yangi ish o'rinlarini yaratish, aholini ish bilan bandlik darajasini oshirishdagi faolligi uning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi yana bir ahamiyatli jihatini namoyon etadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar va uning dastlabki pallasida iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, milliy ishlab chiqarishning tashqi va ichki talabga mos kelmasligi oqibatida mamlakatimizda muayyan darajada ishsizlik vujudga kelgan edi. Shu-nisi e'tiborliki, mustaqil taraqqiyotning dastlabki pallasida mazkur holat iqtisodiyotdagi ahamiyatli pasayish oqi-batida kelib chiqqan siklik ishsizlik ko'rinishida namoyon bo'lsa, hozirga kelib uning asosiy qismi mazmunan ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifning tarkiban nomuvofiqligini ifodalovchi tarkibiy ishsizlik hisoblanadi. Hol-buki, mamlakatda ish o'rinlari yetishmovchiligi to'g'risida so'z borgan bir vaqtda, tegishli malakadagi ishchilar yetishmayotgan sohalar ham mavjudligi namoyon bo'lmoqda. Prezidentimiz tomonidan shu yilning 16-iyunidagi oliy ta'limni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan yig'ilishda bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasida 40 mingta, sanoatda 38 mingta, qurilishda 12 mingta, qishloq xo'jaligida 10 mingta, aloqa va axborot texnologiyalarida 4 mingta oliy ma'lumot talab etadigan bo'sh ish o'rinlari borligi, lekin bitiruvchilar son jihatidan ham, malaka bo'yicha ham bu talabni qondira olmasligi ta'kidlandi.

Shunga ko'ra, ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifni o'zaro muvofiqlashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish orqali ish bilan bandlik darajasini oshirishda kichik tadbirkorlik subyektlarining salohiyatidan keng foydalanil-moqda (3-rasm).



3-rasm: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlarning iqtisodiyotdagi jami bandlar soniga nisbatan ulushi, foizda.

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2018—2022-yillarda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotdagi jami bandlarning $\frac{3}{4}$ qismidan ko'prog'ini qamrab olgan bo'lib, bu hattoki jahondagi bir qator rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichlaridan ham yuqori hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkichning keyingi yillardagi bir oz pasayishi esa, yuqoriga o'rinlarda ta'kidlab o'tilganidek, keyingi yillarda iqtisodiyotning yirik sektoridagi bandlikning nisbatan kengayishi hamda koronavirus pandemiyasining kichik tadbirkorlikdagi bandlikka salbiy ta'siri natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yangi ish o'rinlari yaratish borasidagi imkoniyat va salohiyati uning harakatchanligi, ko'lam jihatidan ixchamligi va yo'nalishni tez o'zgartira olishi kabi xususiyatlari orqali namoyon bo'ladi. To'g'ri, mantiqan alohida olingan yirik korxona kichik korxonaga nisbatan bir necha o'nlab, yuzlab, hat-toki minglab marta ko'proq ishchilarni yollash orqali mutlaq ustunlikka ega bo'lishi mumkin. Biroq, masalaning boshqa bir jihati mavjudki, bu yirik korxona o'z xodimlari tarkibini bir marta to'ldirgandan so'ng, uning yangi ish o'rin yaratish imkoniyati keskin qisqaradi yoki tugaydi. Kichik tadbirkorlik subyektlari esa, yaxlit soha sifatida, o'zgina qo'shimcha daromad olish imkoniyati paydo bo'lgan joyda uzluksiz tarzda va tezlik bilan yangidan yangi ish o'rinlarini yaratishga harakat qiladi.

Ayniqsa, mamlakatimizda bu borada mahalla instituti imkoniyatlaridan kengroq foydalanishga e'tibor qaratilmoqda. 2021-yilning boshida Prezidentimiz tomonidan iqtisodiy o'sishning qo'shimcha xaxiralarini topish va safarbar qilish borasida "mahallabay" tizimini yo'lga qo'yish, har bir mahalladagi o'ziga xos "o'sish nuqtalari"ni aniqlab, ularni rivojlantirish vazifasi belgilab berildi. Jumladan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagini bildirgan aholiga tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda har tomonlama amaliy yordam ko'rsatish, bo'sh bino va yer uchastkalarini aniqlab, ulardan samarali foydalanish choralarini ko'rish, mahallalardagi band bo'lmagan aholini kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'rgatishni tashkil etish orqali ularning bandligiga ko'maklashish, band bo'lmagan aholini tadbirkorlikka va o'zini o'zi band qilib ishlash faoliyatiga jalb qilish, yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslari va startap g'oyalarini yanada quvvatlash, ustoz-shogird an'anasi asosida band bo'lmagan aholini ular yashayotgan tuman (shahar) va mahallada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar hamda hunarmandlarga biriktirish vazifalari qo'yildi.




O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-apreldagi "2021-yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi PQ-5094-son qaroriga ko'ra 2021-yilda doimiy yangi ish o'rinlarini tashkil etishning yig'ma prognoz ko'rsatkichlariga binoan, jami tashkil etiladigan 457 127 nafar yangi ish o'rinlarining 209 507 nafari (deyarli 46 foizi) kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga yaratiladi. Shundan, 121 038 nafari (57,8 foizi) yangi kichik korxona va mikrofirmalar tashkil etish hisobiga, 88469 nafari (42,2 foizi) yakka tartibdagi tadbirkorlikni, shu jumladan hunarmandchilikni rivojlantirish hisobiga tashkil etiladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yangi ish o'rinlari yaratish borasidagi imkoniyat va salohiyatini yanada kengaytiruvchi jihatlardan biri – bu ikkilamchi bandlikni tashkil etish hisoblanadi. Bunda, bir tomondan, ishchi kuchidan yanada samaraliroq foydalanish, boshqa tomondan esa, ijtimoiy jihatdan yordamga muhtoj aholi guruhlari (masalan, ayollar, o'quvchilar, nogironlar, pensionerlar va h.k.) mehnatidan foydalanish ta'minlanadi. Ya'ni, asosiy ish vaqtdan bo'sh aholi qo'shimcha daromad olish maqsadida kichik ko'lamdagi ishlab chiqarishni tashkil etishning uy mehnati, kasanachilik, o'zini o'zi band qilish (frilanserlik) kabi shakllari orqali ikkilamchi tarzda band bo'lishi mumkin. Qolaversa, kichik korxonalardagi mehnatni tashkil etishning moslashuvchan tartibi ayollar, o'quvchilar, nogironlar, pensionerlarning ham qo'shimcha bandligini ta'minlab, mamlakatdagi umumiy bandlik darajasini oshiradi. Ayniqsa, bugungi kunda jahondagi deyarli barcha mamlakatlar aziyat chekayotgan koronavirus pandemiyasi sharoitida ijtimoiy bandlikning tarkibida, uning mazmunida tub o'zgarishlar yuz berdi. Insonlarning an'anaviy turmush tarzi o'zgardi: masofadan turib ishlash, ijtimoiy ihtotalanish, xizmat ko'rsatishning yakka tartibini kuchaytirish talablari oilaviy tadbirkorlik, frilanserlik, mahsulotlarni yetkazib berish xizmati kabi shakllarining paydo bo'lishi va rivojlanishiga turtki berdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimizda aholi daromadlarini oshirish hamda o'rta mulkdorlar qatlamini tarkib toptirishda yetakchi rol o'ynamoqda. Odatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatdagi bandlik darajasini oshirish orqali aholi daromadlari darajasini oshirishga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, kichik tadbirkorlik subyektlarining xususiy daromadlari hamda ular tomonidan yollanma ishchilar mehnatiga haq to'lash orqali aholi daromadlari bevosita oshirilsa, mustaqil ravishda band bo'lishga imkon yaratish va rag'batlantirish, mol-mulkdan olingan daromadlar hamda ijtimoiy transfertlardan olinadigan daromadlar uchun manba yaratishda ishtirok etish orqali aholi daromadlari oshishiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi singari ta'sir omillari natijasida mamlakatimizda aholi daromadlarining sezilarli o'sib borishi kuzatilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, aholining nominal umumiy daromadlari 2018-yildagi 300,7 trln. so'mdan 2023-yilda 728.8 trln. so'mga qadar oshgan. Buning natijasida aholi jon boshiga nominal umumiy daromadlar, tegishli ravishda 9,1 mln. so'mdan 20 mln. so'mga qadar oshgan.

Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi aholi umumiy daromadlari hajmida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushiga bevosita ta'sir ko'rsatadi (4-rasm).



4-rasm: 2022 yilda aholi umumiy daromadlari hajmida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi, foizda²

2 Ma'lumot muallif tomonidan stat.uz saytidan olingan



Ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2022-yilda aholi umumiy daromadlari hajmida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi Jizzax (umumiy daromadlarning 66,2 foizi), Namangan (59,8 foiz), Samarqand (59,4 foiz) viloyatlarida eng yuqori darajani tashkil etgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi (56,2 foiz), Farg'ona (57,5 foiz), Navoiy viloyatlari (49 foiz) hamda Toshkent shahrida (45,8 foiz) yirik sanoat korxonalari va tashkilotlardagi ish haqi ko'rinishidagi daromadlarning salmog'i yuqoriligi sababli, tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi nisbatan past darajada bo'lmoqda.

Tadbirkorlikdan olingan daromadlarning xususiyatli jihatlaridan biri jamiyatda o'rta mulkdorlar qatlamining shakllanishi va rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'rta mulkdorlar qatlami mustahkam asosga ega bo'lgan jamiyat esa doimiy barqarorlik va rivojlanishga, mamlakatda tinchlik va osoyishtalikning ta'minlanishiga moyil bo'ladi.

Mamlakatimizdagi innovatsiya jarayonlarini jadallashtirishda kichik biznes korxonalarining o'rni beqiyos. Ayniqsa, taraqqiyotning yangi bosqichida innovatsion o'sish markazlarini yaratish jarayonlari faollashib, erkin iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalar, ishlab chiqarish klasterlari, texnoparklar va innovatsion biznesning boshqa shakllari paydo bo'lishi bilan mazkur vazifaning ahamiyati yanada oshdi.

Tadbirkorlikning muhim tarkibiy elementlaridan biri – bu innovatsiyalar hisoblanadi. Innovatsiya – bu ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayoniga mahsulot yoki xizmatning iste'mol xususiyatlarini oshiruvchi biron bir yangilikning kiritib borilishidir. O'z ko'lamiga ko'ra kichik bo'lgan korxonalarda yangi texnika va texnologiyalar nisbatan jadallik bilan joriy etiladi, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalaniladi. Kichik tadbirkorlik sohasi o'z ichiga juda katta inson salohiyatini, bir-biridan qiziqarli va foydali bo'lgan tadbirkorlik g'oyalarini, tashabbuskor va g'ayratli insonlarni oladi. Ushbu salohiyatning keng ro'yobga chiqarilishi pirovardida iqtisodiyotdagi tub islohotlar va muhim sifat o'zgarishlariga olib keladi.

Mamlakatimiz kichik biznes korxonalaridagi innovatsion jarayonlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, agar 2016-yilda joriy qilingan innovatsiyalar soni 818 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich 4083 birlikka yetgan, ya'ni 5 baravar oshgan. Natijada, bu davrda ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar 1671,9 mlrd. so'mdan 8455,4 mlrd. so'mga qadar, ya'ni 5,1 baravar o'sgan.

Shu o'rinda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish borasida hali foydalanish mumkin bo'lgan ko'plab imkoniyat va salohiyat mavjudligini ta'kidlash lozim. Mazkur imkoniyatlarni jadal va izchil ravishda ishga tushirish mexanizmlarining yaratilishi sohaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni yanada jadallashtirishdagi ishtirokini oshiradi.

Fikrimizcha, mamlakatimizdagi har 1000 nafar aholiga to'g'ri keluvchi kichik biznes subyektlari sonini xalqaro hamda hududlar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlarga yetkazish orqali soha imkoniyatlarini sezilarli kengaytirish mumkin. Bunda, eng avvalo, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning salohiyatidan samarali foydalanishda ushbu ko'rsatkichdan eng muhim indikator sifatida foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki, bugungi kunda hududlar bo'yicha tahlil qilinganda, mazkur ko'rsatkich bo'yicha juda keskin tabaqalanishni ko'rish mumkin. Viloyatlar kesimida olganda, eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida (32,5 birlik), Navoiy (19,6 birlik), yuqori ko'rsatkichlar Sirdaryo (15,5 birlik), Toshkent (14,9 birlik), Buxoro (13,9 birlik), Jizzax (13,3 birlik) viloyatlarida tarkib topgan. Aksincha, Namangan (9,7 birlik), Qashqadaryo (9,05 birlik) va Surxondaryo (8,8 birlik) viloyatlarida eng past ko'rsatkichlar vujudga kelgan. Ushbu indikator mamlakatdagi ishbilarmonlik muhiti, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash darajasi, tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoitlar, imtiyoz va yengilliklarning yaratilishi kabi ko'plab tahlil qilish va reyting baholash ko'rsatkichlarning barchasi uchun qisqa va lo'nda, lekin haqiqiy va aniq holdagi bahoni ifoda etadi. Agar ushbu ko'rsatkichning viloyatlar kesimidagi o'rtachadan past darajadagi (Surxondaryo, Namangan, Samarqand, Xorazm, Andijon, Qashqadaryo, Farg'ona viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi) qiymatlarini o'rtacha darajaga yetkazilsa (yuqori darajadagi ko'rsatkichlar o'zgarmagani holda), u holda mamlakat bo'yicha kichik biznes korxonalari sonini taxminan 13 foizga qadar o'stirish va buning natijasida har 1000 nafar aholiga to'g'ri keluvchi korxonalar soni 17,6 birlikka qadar oshirish imkoni qo'lga kiritiladi. Agar xorijiy mamlakatlar, jumladan, Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlardagi eng quyi ko'rsatkich – 30 birlikka yetkazilsa, ya'ni hozirgi darajasiga nisbatan 2 baravarga oshirilsa, u holda kichik biznes korxonalari soni 800 mingdan oshadi.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning innovatsion jarayonlarning katalizatori sifatidagi rolini kuchaytirish kerak. Buning uchun innovatsion tavsifdagi tadbirkorlik faoliyati uchun rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash choralarini kengaytirish lozim. Yuqorida ta'kidlanganidek, 2016–2019-yillarda joriy qilingan innovatsiyalar soni va ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar qiymati 5 baravar o'sgan. Biroq, xuddi shu davrda texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga qilingan xarajatlar 9 baravardan yuqori bo'lgan. Bu esa, innovatsion jarayonlar natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatib, aksariyat kichik biznes subyektlarining ushbu jarayonlarda ishtirok etishga bo'lgan qiziqishni kamaytiradi. Shunga ko'ra, innovatsion tavsifdagi kichik biznes faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish jarayonlarining muntazam monitoringini yo'lga qo'yish hamda, dastlabki bosqichda, ularning moliyaviy ta'minotini subsidiyalash orqali iqtisodiyotdagi mustahkam bazasini shakllantirish muhim hisoblanadi.



Yana bir jihat, kichik biznesning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini faollashtirish hisoblanadi. Bu borada sohaning 2022-yilda jami eksportdagi ulushi 29,6% ni tashkil etgani holda, jami importdagi ulushi 49,4%ni tashkil etgan. Hozirda mamlakatimizda eksport bilan shug'ullanuvchi kichik tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq, shunga qaramasdan, ko'p holatlarda kichik eksportyor korxonalar favqulodda holatlarga, turli muammolarga duch kelmoqdalar. Fikrimizcha, kichik biznes korxonalari tashqi savdo faoliyatining maxsus infratuzilmasini talab darajasida rivojlantirish mazkur masalalarning ijobiy yechimi hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning muhim yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilib, sohani yanada rivojlantirish bo'yicha manzilli va ta'sirchan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'z navbatida, bunga javoban mazkur soha ham iqtisodiyotimizning turli jabhalarida o'zining bunyodkorlik va yaratuvchanlik, faollik va jo'shqinlik baxsh etuvchi xususiyatlarini namoyon etib, yangi O'zbekistonning taraqqiyotiga munosib hissa qo'shmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ж. Б. Кнар Р аспредление богатства. – М ., 1994. – 40-6.
2. Kichik biznes va tadbirkorlik: M.R. Boltaboyev (va boshq.); O 'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. – T.: Noshir, 2011. – 280 b.
3. "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. T.: O'zbekiston, 2012.
4. Малый бизнес: Учебное пособие / кол. Авторы; под ред. В.Я. Горфинкеля. - М.: КНОРУС, 2009. – 336 с.
5. Березин И. С. Маркетинговый анализ. Рынок. Фирма. Товар. Продвижение. М.: Вершина, 2008. – 480 с.
6. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy veb sayti, www.stat.uz.
7. <https://data.imf.org/?sk=4c514d48-b6ba-49ed-8ab9-52b0c1a0179b&sid=1409151240976>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.